



YOSHLAR BILAN UCHRASHUV



Yoshlar bandligini ta'minlash va tadbirkorligini rivojlantirish bo'yicha ishchi guruhning Buxoro viloyatiga safari davom etmoqda.

Yoshlar muammolarini o'rganish, ular bilan muloqot qilib, o'rinli taklif va tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash maqsadida Yoshlar ishlari agentligi direktori Alisher Sa'dullayev viloyatning G'ijduvon hamda Peshko' tumanlarida bo'lib, bir qator yoshlar bilan uchrashdi. Tajribali frilanser Shahrillo To'xsanovning IT markazi binosidagi qurilish va ta'mirlash ishlari bilan tanishdi.

Tadbirlar davomida "Yoshlar daftari"ga kiritilgan 136 nafar yoshga o'z faoliyatini yo'lga qo'yishi uchun tikuv mashinasi, elektr payvandlagich, kompressor kabi zarur asbob-uskunalar topshirildi.

Shuningdek, Alisher Sa'dullayev viloyat hokimi Botir Zaripov bilan Ikkinchi jahon urushi qatnashchisi Nazar Sherov xonadonida bo'ldi.



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MUSTAQILLIGINING 30 YILLIGIGA

YANGILANAYOTGAN O'ZBEKISTON: BURUN VA BUGUN

Bu yil mustaqilligimizning 30 yilligini nishonlaymiz. O'tgan tarixiy davrda mamlakatimiz mustaqilligini mustahkamlash, iqtisodiyotimizni rivojlantirish, fan va ta'lim, madaniyat, ijtimoiy hayotimizni yuksaltirish, turmush sharoitimizni yaxshilash kabi ko'plab yo'nalishlarda olib borilgan islohotlarda bevosita ishtirok etyapmiz, unga guvoh bo'lyapmiz.

Bunday tarixiy evrilishlar o'z-o'zicha sodir bo'lmaydi: asrlar, ming yilliklar davomida yetiladi, pishadi. Ayrim el-u elatlar unga jang-u jadal, qon bilan erishgan bo'lsa, ayrimlari tarixiy shart-sharoit taqozosi ila qo'lga kiritadi. Lekin har qanday holatda ham uni oyoqqa turg'izish, xavf-xatar, tahdidlardan himoya qilish, mustamlakachilik asoratlaridan qutulish oson kechmagan. Bashariyat tarixi, hatto, erishilgan bu imkoniyat ko'p o'tmay boy berilganiga ham guvoh bo'lgan. Ayrim el-u elatlar oyoqqa turgunicha qonlar to'kkan, ichki urushlar sodir bo'lgan, parokandalikka yuz tutgan. Bunga dalil qidirish uchun ming yilliklar qariga sho'ng'ish, solnomalarni tit-

kilash shart emas, aksincha, yaqin o'tmishga, yon-verimizga nazar solish kifoya.

O'zbekiston ana shunday murakkab yo'ldan jiddiy talafotlarsiz o'ta oldi. Millatimiz davlat ko'rganini, teran tarixiy ildizlari mavjudligini namoyon etdi.

O'zbekiston yangicha munosabatlarni yo'lga kirdi. U bugun yangilanmoqda, yangilanish jarayonini boshdan kechirmoqda. Mamlakat miqyosidagi siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy muvaffaqiyatlar xalqaro miqyosda ham e'tirof etilmoqda. Eng muhimi, xalqimiz bu o'zgarishlarga guvoh bo'lib qo'llab-quvvatlamogda, islohotlarda ishtirok etayapti. Shu bois uni "Yangi O'zbekiston", deb atayapmiz.

Davomi 4-sahifada.

VATAN OZODLIGI YO'LIDA MARDLIK VA JASORAT KO'RSATGAN INSONLAR XOTIRASI HAMISHA BARHAYOT

Mamlakatimizda Xotira va qadrlash kuni hamda Ikkinchi jahon urushida qozonilgan g'alabaning 76 yilligi keng nishonlanmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ushbu shonli sana munosabati bilan 9-may kuni Olmazor tumaniidagi G'alaba bog'iga tashrif buyurdi.

Atrof bayramona bezatilgan. Qurolli Kuchlar tizimiga kiruvchi vazirlik va idoralarning rahbarlar tarkibi saf torgan.

Davlat rahbari, Qurolli Kuchlarimiz Oliy Bosh Qo'mondoni ularni bayram bilan tabrikladi.

Harbiy orkestr ijrosida "Xotirlash kuyi" yangradi.

Prezident "Matonat madhiyasi" yodgorlik majmuasiga gulchambar qo'ydi.

Bu yodgorlik Ikkinchi jahon urushida besh o'g'lidan ayrilgan jafokash va matonatli ona – Zulfiya aya Zokirova, uning sadoqatli kelinlari va yetim qolgan nabiralari xotirasiga bag'ishlab barpo etilgan. U xalqimizning urushdagi yo'qotishlari, g'alabaga qo'shgan ulkan hissasining timsoli sifatida bog' markazidan o'rin olgan. Bu yodgorlikka gul qo'yish barcha O'zbekiston onalariga yuksak hurmat-ehтиrom ifodasidir.



Davomi 2-sahifada.

XALQ BILAN MULOQOT

Yoshlar bo'sh vaqtlarini qanday o'tkazmoqda?

Joriy yilning 5-7-may kunlari poytaxtimizning Yangiyo'l tumani "mahallabay" ishlash tizimini takomillashtirish, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, aholi bandligini ta'minlash, ayollar huquq va manfaatlarini himoya qilishning dolzarb masalalariga bag'ishlangan uchrashuv bo'lib o'tdi.

Oliy Majlis Senatining Yoshlar, madaniyat va sport masalalari qo'mitasi, xalq deputatlari Toshkent shahar va tuman kengashlari deputatlari hamda "Xalqparvar" komissiyasi hamkorligida tashkil etilgan tadbirida "Yoshlar daftari" va "Ayollar daftari", o'g'il-qizlarni kasb-hunarga o'qitish borasida olib borilayotgan ishlar muhokama qilindi.

Parlament yuqori palatasi Yoshlar, madaniyat va sport masalalari qo'mitasi raisining o'rinbosari Dilorom Toshmuhamedova va boshqa mutasaddilar tuman aholisi va yosh tadbirkorlar bilan muloqot qildi.



— Tumanimizda tadbirkorlik qilishni istagan yoshlar qo'llab-quvvatlanmoqda, — deydi Mastura Mamatqulova. — Yoshligimdan hunarmandchilikka qiziqaman. Uyda o'tirib milliy taqinchoqlarimizni yasardim. Buni ko'rgan qo'ni-qo'shnilarim hunaringizni farzandlarimizga ham o'rgating, deyishardi. Shundan keyin uyimda mahalladagi bolalarga hunarmandchilikni o'rgata boshladim. Qiziquvchilar ko'paygandan so'ng bo'sh joy ajratib berishini so'rab mahallamiz raisiga murojaat qildim. Ular menga mahalla binosi-

dan bir xona ajratib berishdi. Hozir shu yerda yoshlarga hunar o'rgatish bilan bandman. Tadbir ishtirokchilari faoliyatim bilan tanishib, uni yanada takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar berishdi. Ko'rgazma uyushtirib, mahsulotimizga xaridor topishda ko'mak beriladigan bo'ldi. Bu meni juda ruhlantirdi.

"Yorqin hayot" mahalla fuqarolar yig'ini raisi Ergash Ahmadjonovning aytishicha, Mastura Mamatqulova yosh bo'lishiga qaramay juda faol va intiluvchan qiz. U o'z hunarini mahal-



ladagi ehtiyojmand oilalar farzandlariga bepul o'rgatayotganidan hamma xursand. Maktab o'quvchilari ham darsdan bo'sh vaqtlari uning yoniga kelib hunar o'rganishmoqda.

Uchrashuvda senator Dilorom Toshmuhamedova Mastura Mamatqulova singari yosh hunarmand hamda tadbirkorlar faoliyatini rivojlantirishga har tomonlama ko'mak berish birinchi galdagi vazifa bo'lishini ta'kidladi. Bu borada tuman moliya bo'limi, bandlikka ko'maklashish markazi, yoshlar va xotin-qizlar bo'yicha mas'ullar hamda mahalla faollariga o'zaro hamkorlikda ishlash bo'yicha zarur taklif va tavsiyalar berildi.

Iqbol PARDAYEVA

DOLZARB MAVZU

QACHONGACHA MARDIKOR bozoridan ish izlayMIZ?

"YETARLI TAJRIBAGA EGA BO'LGANLARNI ISHGA OLAMIZ".

Ish beruvchilarning e'lonlarini kuzatarkanmiz, yuqoridagi jumlaning, albatta, uchratamiz. Qiziq, tajribali bo'lish uchun avval ishlash kerak emasmi?! Hamma tajribalilar ishlasa, tajribasi yo'q, endi universitetni bitirib, diplomni qo'lga olganlar nima qilsin? Ishga joylashaman, deb e'lonlar bilan tanishasan-u, murojaat uchun, deyilgan raqamga qo'ng'iroq qilganingda sendan "Tajribangiz bormi?" deb so'rashsa dodingni kimga aytasan?

Nazarimda bunday nomutanosiblikning sababi amaliyotning universitetdan boshlanmasligida. Talaba o'qish jarayonida amaliyot o'tasa, o'qishni yakunlaguncha ish beruvchilarning talabiga javob bera oladigan kadr bo'lib yetishadi. Shu bois Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 29-martda "Professional ta'lim tizimida dual ta'limni tashkil etish choratadbirlari haqida"gi qarori qabul qilinganini eshitib quvondik.

Avvalo, dual ta'lim haqida. Unga ko'ra haftada 2 kun talaba sohasi bo'yicha nazariy bilim oladi, qolgan vaqtda amaliyot va shu bilan birga, shartnoma asosida ishlashi mumkin bo'ladi. Buning natijasida talaba o'qish davrida kasb sirlarini o'rganib boradi. O'z o'rnida mehnat bozoridagi malakali kadrlarga bo'lgan ehtiyojni qondirish imkonini kengayadi. Ammo qarorning 5-bandi sabab quvonchimiz uzoqqa cho'zilmadi. Unda shunday yozilgan: "O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi har yili

tizimida professional ta'lim muassasalari bo'lgan vazirliklar va idoralari bilan kelishilgan holda dual ta'lim tashkil etiladigan professional ta'lim muassasalarini belgilasin".

Demak, bu tizim vazirlik belgilab beradigan muayyan ta'lim muassasalarida tatbiq etiladi. Ehtimol, mutasaddilar buni birdan barcha ta'lim muassasalarida amalga oshirishning imkonini yo'q, der. Lekin bu masala qachon to'la yechimini topadi? Axir ta'lim va tajribaning bir-biridan yiroqligi mamlakatda kadrlarga ehtiyojning ortib borishiga, oliy ma'lumotli ishchilarning safi kengayishiga sabab bo'lyapti. Chunki kunduzgi ta'limda tahsil oladigan talabalarning aksari tushgacha darsga borib, undan so'ng ish izlaydi.

Masalan, Toshkent shahridagi restoran, kafe ishchilarning aksariyati talabalar! Ular dars qiladigan vaqtini pul topishga sarflayapti. O'zi ta'lim olayotgan yo'nalish bo'yicha ishlash uchun esa, ish beruvchi tajribasiz va yarim kun ko'rinish be-

radigan talabani ishga olishga rozi bo'lishi kerak. Afsuski, bu imkonsiz. Ayrim sohalarda ish topilmasa ham, ish beruvchi ming bir ta'ma-yu sariq chaqa evaziga ish taklif etadi. Tizimdagi mana shu uzilish talaba-yoshlar, demakki, mamlakat taqdoriga bevosita daxl qilyapti.

Yaqinda yuridik universiteti talabasi bilan bog'liq ko'ngilsiz voqea hammani larzaga soldi. Agar ta'lim va amaliyot bir bo'lganida bunday hodisalar uchramagan, talaba pul topish uchun mardikorlik qilib yurmagani bo'lardi.

— Men o'qiydigan Istanbul universitetida dual tizimi yaxshi yo'lga qo'yilgan. Masalan, bizning san'atshunoslik fakultetida Yunon mifologiyasidan boshlab fan bor. Ushbu fan bo'yicha biz turli miflar, qadimiy rasmlar bilan tanishamiz, shu bilan birga, 1-kursligimizdan boshlab qadimiy joylarda arxeologiya ishlarini olib boramiz, — deydi Istanbul universiteti talabasi Muhabbat Yusupova. — Qadimiy buyumlarni qazib olish

jarayonida ishtirok etamiz. Bu talabalarni zerikarli ma'ruzalardan ko'ra ko'proq qiziqtiradi. O'zbekistonda ham shu tizim to'la yo'lga qo'yilsa yaxshi bo'lardi. Chunki Turkiyaga nisbatan bizning yurtimiz qadimiy go'shalarga boy. Yana bir gap, bu yerda talabaga shaxs sifatida qaraladi. Uning kiyinishi, axloqi ikkinchi darajali. Undan avvalo o'qishni talab qilishadi. Unga vazifa uchun keyingi darsda o'tiladigan mavzuni o'qib kelish aytiladi. Shuning uchun o'qituvchi yangi mavzuni tushuntirayotganda talaba hech narsani bilmay qarab o'tirmaydi. U o'sha mavzuni o'qib tayyorlanib kelgan bo'ladi. Darsda bahs-munozaralar bo'ladi. Forma, odob-axloq so'ralmasa ham hech kim chegaradan chiqib ketmaydi.

Darhaqiqat, bizda darsdan ko'ra ko'proq forma so'raladi. To'g'ri, hamma oliy o'quv yurtlarida forma majburiy emas. Mentalitetga zid bo'lmagan kiyimlarni kiyish mumkin. Lekin ba'zi universitet eshigi oldida turib formani nazorat qilish, darsdan alohida vaqt ajratib yoshlarning kiyimini muhokama qilish, odob-axloqi haqida gapirish ta'lim olinadigan vaqtni shu narsalarga sarflash ayanchli holat, menimcha. Inson qachon erkin bo'lsagina o'zini mustaqil shaxs sifatida biladi. Mustaqil

bo'la olgan inson oldiga katta maqsadlar qo'ya oladi.

— Men o'qiydigan "Hotel menagement" yo'nalishida darslar amaliyot bilan birga olib boriladi. Haftada 3 kun dars o'tamiz. Qolgan kuni amaliyot va ish. Talaba erkin kredit, ya'ni fan tanlash huquqiga ega. Bitta semestr uchun 15 ta kredit olish mumkin. 75 ta kreditdan ta'lim olgan talabalar bimalol yaxshi daromadli ishda ishlashadi, — deydi "Woosong" universiteti talabasi Vohidjon Jumanazarov. — O'quv yili oxirida umumiy 135 kredit yig'ilishi kerak. O'qish talabani o'ziga bog'liq. Darslar malakali professorlar tomonidan o'tiladi. Fanlarni o'zimiz tanlab olib, o'sha bo'yicha o'qishni davom ettirib ketaveramiz.

Afsuski, bizdagi ta'lim tizimida maktab, kollej va litseyda o'qitiladigan darslik universitetning 1-kursida yana, aynan takrorlanadi. Bu talabani bir yillik umri behuda ketdi degani! Umuman ta'lim tizimi hali isloh qilinishi shart. Bosqichma-bosqich deb boshlanadigan shablon gaplardan kechib, amaliy o'zgarishlarni bugun qilmas ekanmiz, mamlakat taraqqiyotiga xizmat qiladigan yoshlar mardikor bozoridan ish axtarishda davom etaveradi.

Mashhura NASRIDINOVA



VATAN OZODLIGI YO'LIDA MARDLIK VA JASORAT KO'RSATGAN INSONLAR XOTIRASI HAMISHA BARHAYOT

Davomi. Boshlanishi 1-sahifada.

Qurolli Kuchlar tizimiga kiruvchi vazirlik va idoralar vakillari ham majmua poyiga gullar qo'ydi.

G'alaba bog'idagi amfiteatrida 9-may – Xotira va qadrlash kuniga bag'ishlangan bayram tadbiri bo'lib o'tdi.

Ushbu ayyom kunlari bugungi tinch-osoyishta hayotga qanday og'ir sinov va mashaqqatlar evaziga erishilganini yana bir bor chuqur his etamiz. Bu yo'lda qurbon bo'lgan yurtodshlarimiz xotirasiga ta'zim qilamiz.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning joriy yil 20-apreldagi "Ikkinchi jahon urushi qatnashchilarini rag'batlantirish to'g'risida"gi farmoni hamda "Xotira va qadrlash kuniga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida urush qatnashchilari holidan xabar olish, yurt tinchligi va ozodligi yo'lida jon fido qilgan vatandoshlarimiz xotirasini yod etishdek ezgu maqsadlar ifodasini topgan.

Ushbu hujjatlarga muvofiq, Ikkinchi jahon urushi qatnashchilarining har biriga Prezidentimiz tabriknomasisi, 12 million so'm miqdorida biryo'la to'lanadigan pul mukofoti va bayram sovg'alari tantanali ravishda topshirildi. Ularning har birini tibbiy va ijtimoiy himoya qilish maqsadida tegishli xodimlar birlashtirilib, doimiy patronaj xizmati ko'rsatilmog'da. Sanatoriylarga bepul yo'llanmalar ajratilmog'da.

Urush qatnashchilari va front orti faxriylari bilan birga mustaqillik yillarida xizmat burchini bajarish chog'ida halok bo'lgan harbiy xizmatchilar va huquqni muhofaza qilish organlari xodimlarining oila a'zolariga ham moddiy va ma'naviy yordam ko'rsatilmog'da.

Davlatimiz rahbari Xotira va qadrlash kuni hamda Ikkinchi jahon urushida qozonilgan g'alabani 76 yilligi bilan barcha faxriylarni, butun xalqimizni tabrikladi.

– Bugungi shonli sanani biz doimo cheksiz quvonch va cheksiz iztirob bilan nishonlaymiz, – dedi Shavkat Mirziyoyev.

Ikkinchi jahon urushi insoniyat tarixidagi eng katta, eng mash'um qirg'indir. Olti yil davom etgan bu urushda o'sha paytda dunyodagi 73 ta davlatdan 62 tasi, yer yuzi aholisining 80 foizi ishtirok etgan. Yevropa, Osiyo va Afrika qit'alaridagi 40 ta davlatni bevosita qamrab olgan qurolli to'qnashuvlarga 110 million kishi safarbar etilgan va jami 70 million kishi halok bo'lgan.

Bu urushda qatnashgan, front ortida mashaqqatli mehnat qilgan ota-bobolarimiz va momolarimizning beqiyos mardlik va matonati insoniyat tarixiga buyuk sahifa bo'lib yozilgan.

– Biz – bugungi minnatdor avlodlar sizlar kabi jasur otalarimiz bilan umrbod faxrlanamiz. Mana shu hayajonli daqiqlarda sizlarning jang maydonlaridagi buyuk qahramonligingiz, urushdan keyin mamlakatni tiklash va rivojlantirish yo'lida qilgan fidokorona xizmatlaringiz uchun barchamiz bosh egib ta'zim qilamiz. Oradan yana qancha yillar, asrlar o'tmasin, sizlarning fashizmga qarshi ko'rsatgan matonatingizni xalqimiz hamisha qalbida, xotirasida saqlaydi, bu jasorat yoshlarimiz uchun abadiy ibrat namunasi bo'lib qoladi, – dedi Prezident.

1941-yil arafasida respublikamiz aholisi 6 million 800 mingdan ziyod bo'lgan. Urush boshlanishi bilan, shundan

qariyb 2 millioni frontga otlangan. Bu qahramon insonlarning 500 mingdan ziyodi janglarda halok bo'lgan.

– Biz bu raqamlarni har yili qayta-qayta esga olamiz. Bular shunchaki oddiy raqamlar emas. Ularning zamirida mushtipar onalarimiz, momolarimiz, mard va jasur otalarimiz, butun xalqimiz qalbidagi cheksiz qayg'u va hasrat mujassam. Bu dard-u alamlarni hech qanday raqam, hech qanday so'z bilan ifodalab bo'lmaydi, – dedi davlatimiz rahbari.

Urushdan jabr ko'rgan 1 million 500 mingdan ortiq keksalar, ayollar va bolalar respublikamizga ko'chirib keltirilgan. Ularning 200 mingdan ziyodi ota-onasidan ayrilgan bolalar edi.

– El-yurtimiz mudhish urush yillarida o'zining yuksak gumanistik fazilatlarini namoyon etdi. O'zbekistonga olib kelingan turli millatga mansub ming-minglab insonlarga boshpana berdi, mehr-shafqat, odamiylik ko'rsatib, eng so'nggi nonini ham ular bilan baham ko'rdi. Xalqimizning bunday ulkan jasorati, olijanoblighi butun dunyoda hurmat-e'tirofga sazovor bo'ldi. Va bu bilan har qancha faxrlansak, g'ururlansak arziydi, – dedi Shavkat Mirziyoyev.

Urush fojialaridan saboq chiqarib, tinchlik uchun kurashish ham har qachongidan ham dolzarb bo'lib

borayotgani ta'kidlandi. O'zbekiston o'z strategiyasiga muvofiq, tinchlik va barqarorlik, millatlar va dinlararo totuvlikni asrash, davlat mustaqilligini yanada mustahkamlash yo'lidan boradi.

Tadbir televideniye orqali to'g'ridan-to'g'ri namoyish qilindi. Davlatimiz rahbari Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlardagi bayram ishtirokchilari, nuroniyalar bilan videoaloqa orqali muloqot qildi.

Shavkat Mirziyoyev tadbirga kelgan urush va mehnat faxriylari bilan salomlashib, hol-ahvol so'radi. Ularga sihat-salomatlik, uzoq umr tiladi. Keksalar mamlakatimizga tinchlik-osoyishtalik, xalqimizga farovonlik tilab duolar qildi.

Prezident nuroniyalar bilan birga bayramga bag'ishlangan konsert dasturini tomosha qildi.

– Bayram munosabati bilan o'tkazilayotgan tadbirlardan juda ruhlandim, – dedi Qashqadaryo viloyati Shahrisabz tumanidan kelgan Sa'dullo ota Jabborov. – 102 yoshga kirdim. Yoshligimda ota-onamiz maslahatidan chiqmadim, yaxshi odamlarga yaqin bo'ldim, ular ko'rsatgan yo'l-yo'riqlarga amal qildim. Davlatimiz, xalqimiz g'amxo'rliqi bilan bugungi dorilomon kunlarni ko'rish nasib etdi. Hozir Prezidentimiz yoshlarni ko'p o'qishga, ilmiy bo'lishga da'vat qilayapti. Bilimli insonlar hisobiga tinchligimiz mustahkam, hayotimiz farovon bo'ladi.

– 1924-yilda tug'ilganman. Bugun G'alaba bog'ida 9-may – Xotira va qadrlash kuni hamda fashizm ustidan qozonilgan g'alabani 76 yilligini qurolodoshlarim bilan birga nishonlash nasib etganidan juda xursandman, – deydi Navoiy viloyati Nurota tumanida yashovchi Norboy ota Qozoqov. – Biz eski avlodimiz, yoshligimizda bunday imkoniyatlar bo'lmagan. Mustaqil O'zbekistonimiz butun dunyoga tanilayotgani, o'zbek xalqi muvaffaqiyatlarga erishayotganini ko'rib, attang o'n yil keyin dunyoga kelmagan ekanman deyman. Muhtaram Prezidentimiz boshchiligidagi yurtimiz tinch, xalqimiz omon bo'lsin! Biz, faxriylarga ko'rsatilayotgan g'amxo'rliklardan boshimiz ko'kka yetmoqda.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Shon-sharaf muzeyidagi yangi ekspozitsiya bilan tanishdi.

Muzeyda 12 ming 500 dan ziyod eksponat to'plangan bo'lib, ularning soni tobora ortib bormog'da. Tarixiy fakt va voqealar zamonaviy texnologiyalar, interaktiv usullar yordamida aks ettirilgan. Davlatimiz rahbarining avvalgi tashrif chog'idagi ko'rsatmalari asosida ekspozitsiyalar yanada boyitilgan. Qurolli Kuchlar tizimidagi vazirlik va idoralar uchun alohida bo'limlar tashkil etilgan.

– Bu yer xalq muzeyi bo'lishi kerak. Urushda qatnashgan yoki yetim bolalarni boqib olgan insonlarning avlodlari bilan bog'lanib, bobolarining jasoratini yuzaga chiqarish zarur. Hali o'rganilmagan juda ko'p manbalar bor. Yurtimizdagi har bir qishloq, mahalla, maktab, umuman, jamoatchilik ularni to'plash va targ'ib etishda faollik ko'rsatishi kerak. Bu urush dahshatini anglash, tarixdan saboq chiqarish uchun muhim. Muzey bunda asos, tarix bilan bugungi kun o'rtasida ko'pri bo'lishi kerak, – dedi Shavkat Mirziyoyev.

Ikkinchi jahon urushi ishtirokchilari haqidagi ma'lumotlarning elektron bazasini yaratish, kitoblar chop etish bo'yicha topshiriqlar berildi.



**Иногда обычная
рыбалка может
круто изменить
жизнь, как это
получилось
у кашкадарьинского
подростка**



А ТЫ С ВЕКАМИ ПОДРУЖИСЬ!

Мальчишка всегда с нетерпением ждал лета: одноклассник отца, известный историк-археолог, заезжал к другу, и они договаривались порыбачить вместе. Конечно, Мансура брали с собой.

Что это были за часы! Рыба паренка интересовала меньше всего, потому что Анатолий Сагдуллаев рассказывал об Александре Македонском и Спитамене, с ним можно было пройти дорогами Сахибкирана Амира Темура. Казалось, у ученого готов ответ на любой вопрос.

Тогда-то Мансура Хаятова, еще и внука учителя истории, впервые посетила мысль, что он так же сможет увлечь своими рассказами мальчишек и девчонок. Поэтому и выбрал по окончании школы исторический факультет Национального университета Узбекистана. Учился с увлечением, однако предметником представил себя только во время педагогической практики в столичной школе №60. Ему нравилась любознательность шестиклассников, задающих десятки вопросов (в том числе и на засыпку!) молодому практиканту. Это заставляло готовиться с особой тщательностью, подбирать дополнительную литературу, самому устраивать нестандартные блиц-опросы.

— Да, — думал будущий специалист, — учитель как скульптор. Постоянно находится в процессе валяния. Добавляет новые черты, шлифует, формирует мировоззрение. Интересно, какими будут мои ученики, когда вернусь в родной Китаб?

Судьба испытывала выпускника истфака, предлагая ему профессиональные альтернативы, но в итоге все-таки привела к учительству. И ребята из школы №2 города Китаба как будто только его и ждали. Мансур Тохирович понял: одними занятиями не обойтись — нужен кружок «Юный историк». Поначалу в него записывались целыми классами, потом остались самые стойкие, однако никогда

наставник не раскрывал тайны веков в полупустом кабинете. Слово и сама земля, помнящая великих предков, помогала. Перед экскурсиями в Шахрисабз учащиеся старательно искали информацию об Амуре Темура в разных источниках: хотелось там, на родине Сахибкирана, отличиться

об историческом наследии наш Президент? О нем весь мир узнать должен.

Стыдно станет мальчишке, откроет учебник и читает, как устоз научил, получая по крупицам великое наследство. А на следующем уроке изо всех сил руку тянет.

Кружок Мансура Хаятова работал онлайн во время самого жесткого карантина. Историк составлял тесты, на которые без прочных знаний не ответишь, посылал ребятам интересную информацию, иллюстрации, вопросы на сообразительность. Вроде с учебниками под рукой все должно отвечать на «пятерки», а задания сформулированы так, что с ходу не разберешься. Вот и приходилось воспитанникам Мансура Тохировича в очередной раз перелистывать странички и задумываться над написанным. Сейчас кружок функционирует в обычном режиме три раза в неделю. И ведь пропустить никому и в голову не приходит: там ролевые игры, кроссворды, выступления товарищей, диспуты.

В мае 2020 года кружковцы первыми услышали хорошую новость: разработка урока их учителя «Архитектура, искусство, музыка» по истории Узбекистана признана лучшей в Кашкадарьинской области. А сколько зрителей во время предметного месячника собрало внеклассное мероприятие, посвященное Дню Конституции, в актовом зале! Вопросы публике задавали главы Основного Закона. Неловко не ответить.

Запомнился школе и интегрированный урок «Олимпийские игры», где о знаменитых состязаниях, зародившихся в глубокой древности, рассказывали еще и на английском языке.

Особую радость Мансуру Тохировичу доставило выступление перед учащимися академика Анатолия Сагдуллаева, автора учебника по истории Древнего мира. Он рассказывал о себе, отвечал на многочисленные вопросы, поражая отличным владением двумя языками — узбекским и русским. Тогда-то учитель М.Хаятов признался ученикам, что этот человек, которого слушают раскрыв рты от удивления, — его кумир, позвавший в подростковые годы в увлекательнейший мир истории.

— Люблю свою работу! — говорит учитель. — Радуюсь, если вижу отдачу в детях, их стремление узнать, запомнить и, что еще важнее, передать другим. Мы живем в Кашкадарье, полной чудес, как отзываются о ней гости нашего края. И чудеса эти хранит не только природа. Их открывает история. Тем, кто готов с ними встретиться.

Ольга ВОЛОДИНА

Открой свое сердце истории. Не воспринимай ее как обязаловку, а подойди как наследник огромного богатства, завещанного предками. Сокровища будут принадлежать тебе, когда ты их полюбишь от души и попытаешься «оживить». Хочешь по праву гордиться прошлым своего народа — изучай его!

знаниями. Учитель целенаправленно приучал их к самостоятельной работе, вдумчивому подходу к материалу, исключая зубрежку. Когда кто-то жаловался на плохое запоминание дат или событий, советовал с улыбкой:

— А ты с веками подружись! Открой свое сердце истории. Не воспринимай ее как обязаловку, а подойди как наследник огромного богатства, завещанного предками. Сокровища будут принадлежать тебе, когда ты их полюбишь от души и попытаешься «оживить». Тогда и даты запомнятся, и имена и события перестанут перемешиваться. Хочешь по праву гордиться прошлым своего народа — изучай его! Слышал, что говорил



Новости образования

**Сдал на «отлично»?
Деньги вернут**

С 1 мая молодые люди, набравшие высокие баллы по IELTS, TOEFL, GMAT, GRE и SAT, могут получить полную компенсацию расходов на экзамены. Со следующего года в список войдут еще 13 международных экзаменационных систем.

Соответствующее постановление принято Кабинетом Министров. Обратиться за компенсацией в Агентство по делам молодежи могут граждане Узбекистана и лица без гражданства, постоянно проживающие в стране, в возрасте до 31 года. Заявление подается через Центры госуслуг.

По слова директора агентства Алишера Саъдуллаева, в республике средний показатель по сдаче IELTS — 5,7 балла, в Казахстане — 6,1. Он пояснил, что возмещение расходов на экзамены будет стимулировать молодежь в получении знаний.

Инклюзивно, доступно

Министерство дошкольного образования и международный общественный фонд «Zamin» подписали меморандум о совместной реализации комплекса мероприятий.



Они направлены на развитие инклюзивного образования, а также на поддержку детей с инвалидностью, в том числе из социально уязвимых семей. Речь идет об оздоровлении, реабилитации и дальнейшей адаптации в обществе.

На встрече министр дошкольного образования Агриппина Шин отметила, что такие ребята больше всех нуждаются в помощи. Самое главное — реализовать их право на качественное обучение.

Представители обеих сторон обсудили вопросы совместного проведения проектов, повышения квалификации сотрудников ДОО.

Я бы в летчики пошел...

В Ташкентском государственном транспортном университете откроют Школу по подготовке пилотов гражданской авиации.

Инициатива реализуется совместно с Французской национальной школой гражданской авиации (ENAC).

Учебное заведение примет студентов уже этой осенью. Первоначально на основании совместных образовательных программ будет организована подготовка кадров по направлению бакалавриата «Летная эксплуатация воздушных судов».

Выпускники получат диплом установленного образца ENAC, который признается в Узбекистане.

Уроки доброты

Приют для бездомных животных «Хайт» проводит в столичных учебных заведениях занятия, призванные привить гуманное отношение к братьям нашим меньшим.



Первые «уроки доброты» организованы в частных школах Oxbridge International School и Diplomat. Волонтеры проекта рассказали ученикам о милосердии, объяснили, почему животные в нем нуждаются и как помочь четвероногим друзьям, попавшим в беду. Дети внимательно слушали, принимали активное участие в дискуссии и с интересом отвечали на вопросы.

Ребята узнали, как работает приют, как собаки попадают туда и как за ними ухаживают. В ближайшее время ожидается визит школьников в «Хайт».

В основе создания международных праздников – стремление привлечь внимание широкой общественности на определенную проблему. Ею стало снижение уровня общения самых близких людей – супругов и родителей с детьми. Катастрофическая нехватка времени для важнейшей коммуникации заставила бить тревогу.

Международный день семьи родился 15 мая 1993 года, а 1994-й был провозглашен Международным годом семьи. Тема нынешней даты – «Семья и новые технологии». Мировое сообщество интересуется, как использование ИКТ может повлиять на улучшение благосостояния основной ячейки общества.

Мухайё Менгнарова и Владимир Гоменюк в который раз спрашивали себя, по силам ли ноша, которую по доброй воле собираются взвалить на плечи. Своих детей нет, а без них даже самый прочный союз неполный. Мысль об усыновлении стала главной в течение нескольких лет.



СОГРЕТЫЕ ЛЮБОВЬЮ

СЕМЬ «Я» = ДРУЖНЫЕ «МЫ»

СПРОСИВ У СЕРДЦА

Работая с детьми, мечтающими о маме и папе, любили их всей душой, однако понимали: не они. Им по судьбе другие родители. Ведь должно же проявиться обоюдное притяжение, свойственное родным душам, чтобы сразу стало понятно: мы созданы друг для друга. Более двух лет собирали информацию, как происходит адаптация ребят в приемных семьях, с какими проблемами они сталкиваются. Первым делом задали себе вопрос: «Что можем дать детям? Получится ли окружить их любовью, теплотой, доверием – тем, чего они ждут больше всего?»

– Когда встретились со своими мальчишками, – вспоминает Мухайё Ураловна, – внутри что-то щелкнуло, как будто искра пробежала. Было ощущение, что они только нас и ждали. Недавно потеряв маму, потянулись к нам навстречу, согласившись поехать в Ташкент. С другими сыновьями получилось так же. Дети сразу чувствуют, насколько открыты по отношению к ним взрослые.

...Привезли мальчишек из Самарканда. Ты оглядывалась со стороны, радовалась. Взрослых не покидало ощущение, будто только что обретенные сыновья уехали на время. Трудности в общении появились потом. Без них не бывает. Супруги, имея большой опыт педагогической работы в домах «Мехрибонлик» и

зная возрастные особенности, были готовы ко всему. Их не удивляли детские капризы, какие-то резкие высказывания, перепады настроения. Старались пережить их вместе с пацанами, все больше сближаясь. Понимали: сразу идеального взаимопонимания не добьешься. Ведь у братьев сохранилась память о той семье, в которой была мама.

ТЕПЛАЯ АТМОСФЕРА, ПОНИМАЮЩАЯ СЕМЬЯ

Бывало всякое. Проблемы вырастали вместе с детьми. Каждый из пятерых – личность. С особенным характером, собственным мнением и готовностью его отстаивать. Случаются споры и ссоры, но в дружной компании «шесть к одному» принято признавать ошибки и просить прощения. Взрослые не исключение.

К конфликтам относятся философски, считая их факторами, укрепляющими семью. Однако ни один не обходится без глубокого анализа, и дети привыкли к подобным «разборам полетов».

Человек принят, любим и свободен – главный принцип счастья. Где свобода, там есть все. Свобода выбора, мнения, поведения... Каждого члена семьи принимают таким, какой он есть, не пытаясь насильственно переделать. «Мы все разные, – звучит домашний «хор», – и все уникальные!»

МЕЧТЫ, МЕЧТЫ...

Мальчишки мечтают, посвящая в тайную тайных маму Мухайё и папу Владимира. Много рисуют, и картинку открывают планы

на будущее. Изображают особняки (неудивительно, ведь семье приходится снимать квартиру, родители свою двухкомнатную выделили старшим, приучая к самостоятельной жизни) с бассейном и садом – дом завтрашнего дня. Один собирается стать программистом, как старший брат, заканчивающий университет, другой – дизайнером. Есть среди них будущий сотрудник налоговой службы и бизнесмен. Хотят быть сильными, преодолеть любые трудности, получить любимую профессию и обязательно иметь большую семью, живущую в огромном доме. Шутят с родителями: «Будем оставлять с вами внуков, а сами уходить с женами на прогулку».

Любит гостеприимная ватага наносить визиты и принимать друзей – семьи с похожей судьбой. Дети придумывают игры, конкурсы, взрослые могут спокойно пообщаться и поделиться воспитательными находками. За столом рассказывают о достижениях сыновей, их оригинальных сюрпризах, хвалят за трудолюбие. Эта гордость тоже стимулирует.

СПРАВЛЯЕМСЯ С ТРУДНОСТЯМИ

Кто из родителей не страдал от перепадов настроения детей, даже их грубости, когда наступал он – переходный возраст?!

– Выплескивают эмоции где надо и где не надо! – улыбается многодетная мама. – Только и слышишь: «Не хочу! Надоело». Прорывает даже обидное: «К родным бы по-другому относились, меньше заставляли». Даем возможность высказаться. Потом к этому возвращаемся, когда все остынет. Спокойно, с примерами обсуждаем выходку и ее возможные последствия. Важно не читать нотации, а говорить о своих чувствах. Помириться, обнять. В любом случае подросток должен знать, что его любят. А по поводу того, что неродная, отвечаю: «Вы родились в моем сердце! А родная мама гордилась бы твоей самостоятельностью, хорошими оценками, всем, чему мы тебя учим».

Особенно избирательными стоит быть в форме наказания, его приемный ребенок воспринимает гораздо острее, нежели воспитывающийся в родной семье. Не выучил уроки – не будешь смотреть телевизор. Не выполнил свою работу по дому – не пойдешь гулять. Прогнозировал обязанности дежурного – дежурь повторно. Физические наказания исключены, а те, которые приняты, заставляют задуматься: «Какую роль я играю в семье? Не подвожу ли ее?»

Абдулхай, Мухриддин, Давид, Дониёр, Дмитрий – два брата из Самарканда, мальчишка из Каттакургона, согретые любовью, обрели новую большую семью, где их понимают и уважают. Чего стоит фраза, произносимая изо дня в день: «Вы наши орлы! Таких детей нет ни у кого!» И у орлов расправляются крылья.

Людмила АЛЕКСИЧ

Абдулхай, Мухриддин, Давид, Дониёр, Дмитрий – два брата из Самарканда, мальчишка из Каттакургона, согретые любовью, обрели новую большую семью, где их понимают и уважают.

Все интересные моменты, успехи, озвученные желания снимались на видео. Традиция – в полном составе просматривать эти записи, по-доброму вспоминая прошедшие годы.

ПРИХОДИТЕ К НАМ В ГОСТИ!

В квартире образцовый порядок. А в этой чистоте уважение друг к другу, к чужому труду. Обязанности распределяются по силам и должны безупречно выполняться. Если вдруг начинают увильвать от работы, папа напоминает: «Есть слово «надо», и оно главнее «хочу». Пять голосов вторят: «Хотеть не вредно!»

Ребят приучают: «Любишь свою семью – трудись для нее с любовью!» Обязательно отмечают дни рождения, когда все внимание имениннику, тогда дается послабление.

Когда Владимир Федорович колдует на кухне (прекрасно готовит), сыновья в роли повара: помыть, почистить, порезать... Готовку сопровождают истории из студенческой жизни: как важно все уметь самому, чтобы не оказаться беспомощным в быту.

Совместные походы в театры, на выставки, в парки раскрывают потаенные уголки души. В веселой ребячьей болтовне внимательный слушатель находит отражение сокровенных мыслей. Это тоже сближает. Учит ценить прекрасное и делиться эмоциями с родными.



Собираться за одним столом – добрая традиция этой удивительной семьи.

УЗНАЙ!



Перед войной в Узбекистане проживали 6,5 миллиона человек. По последним данным, из них были мобилизованы и ушли на фронт свыше 1,9 миллиона. Это значит, что в борьбу с фашизмом с оружием в руках вступил каждый третий наш соотечественник.

Ранее считалось, что в боях погибли 396 тысяч граждан Узбекистана. На самом деле – свыше 528 тысяч. Кроме того, не было достоверных данных о числе пропавших без вести. Сегодня точно установлено, что такая судьба постигла более 158 тысяч человек.



Республика приняла около полутора миллионов эвакуированных, в том числе свыше 250 тысяч детей, которых жестокая война лишила крова, родных и близких.



В 1941–1945 годах Узбекистан стал всесоюзным госпиталем. Тысячи солдат и офицеров получили здесь необходимое лечение и смогли вернуться на фронт или к работе в тылу.




В годы войны республика отправила на фронт свыше двух тысяч самолетов, множество другой военной техники и боеприпасов, военно-санитарные поезда, сотни полевых кухонь, огромное количество продовольствия, обмундирования и иной необходимой продукции.



Сегодня в Узбекистане проживают около 400 ветеранов войны, из них более 40 – почтенные люди старше 100 лет.

Над улочками Хивы струился аромат абрикосов. Его впитывали памятники старины, прекрасные резные двери, ему улыбались жители древнего города. А меня, девчонку с именем весеннего цветка, распирало от гордости: дедуля варенье варит.

Два деда – два героя



Ибрагим Янгузов

ПАМЯТЬ СЕРДЦА

К химику Ибрагиму Янгузову выстраивалась целая очередь. Ведь никто не мог столь мастерски сохранить запах и вкус фруктов, как он. Потом поспевали вишня, персики, яблоки... И дедушка вновь откинулся на сон. Для нас же, его внуков, было великой радостью сопровождать этого «вареньевого волшебника» и лакомиться душистой пенкой. Вся махалля знала, куда приглашен Ибрагим Мусеевич, потому что по пути он громко рассказывал нам о растениях и звездах, о климате и свойствах минералов. Желавшие послушать подходили к окнам. И в детский сад мы шли под тот же аккомпанемент. Не теряя ни минуты, просвещались.

Как-то поинтересовалась:

– Дедушка, почему вы разговариваете громче всех в городе?

– А это пушки виноваты... Вырастешь – поймешь.

Поняла. Как, впрочем, и его отношение к любому воспоминанию о войне. Мне тогда шесть лет было. Дедушка устроил день опытов для двух моих сестер и братика. Мама вернулась

с работы и перепугалась не на шутку, увидев, что из окон валит дым. Придя в себя, выдохнула: «Что за сражение у вас здесь было?» И услышала: «Не вспоминай ее, доченька, проклятую! Не сравнивай ничего с войной!»

Старший лейтенант Янгузов, артиллерист, командир огневого взвода, кавалер орденов Отечественной войны I и II степени, Красной Звезды, участвовавший в героической обороне Ленинграда, прошел путями сражений до Берлина, получил осколочное ранение в ногу. Военная профессия повлияла на слух. Дедушка плохо слышал, поэтому говорил очень громко. Так спустя годы я получила ответ на свой вопрос. А как мне не хватает раскатистых объяснений об устройстве мира и замечательного девиза, произнесенного родным голосом: «Уважайте старших, не обижайте младших!»

Война не испортила характера этого порядочного, всегда уравновешенного человека, добрейшего, во всем умеющего находить только хорошее. Он учил радоваться и близким, и окружающим. Вот только поступаться принципами не научился. Высоко ценилась не только его «четверка» – твердая «тройка». Даже когда перестал преподавать химию, его приглашали на государственные экзамены в техникум.

Когда мы ездили в гости в Сырдарьинскую область, удивлялись, с каким уважением люди здороваются с другим нашим дедушкой – Саттаром Раджиметовым, участником великой Сталинградской битвы. Соиздателем, «напоившим» Голодную степь, давшим освоителям целинных земель кров. Саттар-бобо возводил дома и оросительную сеть. На сорокалетие Победы был приглашен на торжество в Волгоград и там узнал, что награжден орденом



Саттар Раджиметов

Отечественной войны I степени за Сталинград. Никто и не предполагал, что после тяжелой контузии и ранения веселый узбекистанец остался в живых. Наша семья, как легенда, вспоминает историю невероятного путешествия деда в санбат. Случай, когда в «мясорубке» (это слово лучше других характеризовало самые значительные битвы) боев проявлялась человечность даже со стороны врага. В огне и дыму товарищи, выносившие сержанта Раджиметова на плащ-палатке, напорились на немецкий пост. Ожидая автоматной очереди, увидели, как солдаты показывают им направление движения. Осколок в ногу напоминал дедушке о себе до конца жизни, война не отпускала его, возвращаясь физической болью. Наказ Саттар-бобо выразился в короткой запоминающейся фразе: «Добивайтесь цели во что бы то ни стало!»

Рассказы о войне были табу для обоих дедушек, не любили они вспоминать о годах лишения, о потере боевых товарищей, о том, что убивает жизнь. А вот о том, каким должен быть человек, что значит Родину любить и трудиться на ее благо, как приобретать знания, – всегда с удовольствием.

«Уважайте старших, не обижайте младших!», «Добивайтесь цели во что бы то ни стало!» – принципы дедов стали для нас ведущими, воспитываем на них детей и внуков передадим. Спасибо за мир, дорогие мои герои!

Лола ЯНГУРЗОВА,
34 года

ЭХО ВОЙНЫ

Его нет, но он может говорить со всеми – с моими сверстниками и малышами, со студентами и пенсионерами. С теми, кто приходит в мемориальный комплекс «Парк Победы» и с болью погружается в память скорби и подвига в музее «Шон-шарф». Он – Абдувахоб Ибрагимов, «вернувшийся из ада».



Встреча Фредерика Бергстрема и Абдувахоба Ибрагимова. Ташкент, 1971 г.

Было время (имя ему война), когда наши предки и многие миллионы людей жили в страхе, не зная, что принесет завтрашний день, какие несчастья и лишения. Молодое поколение часто жалуется на проблемы. Что значат они по сравнению с тем, что выпало на долю переживших сороковые?!

Мама рассказала, что ее дедушка был тяжело ранен и попал в плен. Так сержанту Ибрагимову пришлось узнать, что такое лагерный ад. В «Заксенхаузене» он подружился с норвежцем Фредериком Бергстремом. Из-за ранения и побоев (его зверски избивали за попытку к бегству и отказ предать Родину) пленник из Узбекистана некоторое время не мог ходить и был обречен погибнуть в газовой камере. Друг, лагерный писарь, помог Абдувахобу избежать смерти. На кровати заболевших вешали таблички, где отмечалось начало болезни. После определен-

ного времени нетрудоспособности от «балласта» (не может работать – нет ему места и еды!) избавлялись. Фредерику эту табличку удалось поменять...

Так товарищи по несчастью и держались друг за друга, не уступая смерти, пока их не разлучили. Интересно, как общая беда обостряет понимание. Узбек и норвежец общались с помощью жестов, не понимая языка. И жесты были красноречивее слов, потому что помогали выжить.

Окончание войны не стерло эту дружбу в памяти. Фредрик с семьей прилетал в Ташкент, где узнал, что такое узбекское гостеприимство. Успевший влюбиться в наши национальные блюда, в ароматный плов, норвежец наверняка вспомнил лагерное меню, едва поддерживающее жизни узников.

А еще мама со слезами делилась другим воспоминанием из детства: «Я не раз спрашивала у дедушки, откуда у него на ноге такой страшный шрам. Всегда добрый, улыбочивый, он темнел лицом и замолкал. Ответа я не получала. Не понимала тогда, что за мгновение его память прокурчивает те ужасы, с которыми пришлось встретиться».

Горжусь, что наши соотечественники внесли весомый вклад в общую Победу. Горжусь, что я правнучка человека, сумевшего выстоять в аду и не потерявшего себя.

История моего прадедушки и других узбекистанцев – участников Второй мировой войны и трудового фронта – отражена в экспозиции нового музея. Это нужно нам, их потомкам. Чтобы понимали, какое счастье – мир. Чтобы задумались над пророческими словами Уолтера Мондейла: «Ветеранов Третьей мировой не будет!»

Камила ШАМУРАТОВА,
школа №209, г.Ташкент

Непобедимый

O'ZBEKISTON MUSULMONLARI IDORASI JAMOASI


Barcha yurtdoshlarimizni Iyd ul-fitr – Ramazon hayiti munosabati bilan samimiy muborakbod etadi. Alloh taolodan xalqimizga sihat-salomatlik, shod-u xurramlik va oilaviy baxt-saodat so'raydi. Yurt taraqqiyoti yo'lidagi ezgu ishlarda ulkan zafarlar tilaydi. Ushbu saodatli kunlarda Alloh taolo tutgan ro'zalarimizni qabul, ibodatlarimizni maqbul, duolarimizni mustajob aylasin. Osmonimiz musaffo, hayotimiz bundan-da farovon bo'lib, ona Vatanimiz yanada gullab yashnayversin!

TADBIR

“Dil” navolari

Andijon davlat tibbiyot institutining “Talabalar shaharchasi”da “Dil” loyihasi asosida she'riyat va musiqa shaydolari ishtirokida ijod kechasi tashkil etildi.

Tadbirida so'z olgan Yoshlar itifoqining viloyat kengashi raisi Rasuljon Karimov, institut rektori



M.Madazimov yoshlarning bo'sh vaqtlarini samarali tashkil etish, iqtidorini yuzaga chiqarishda viloyatda o'tkazilayotgan “Madaniyat oyligi”ning ahamiyati yuqori ekanligini ta'kidledi.

Viloyat hokimligi tashkilotchiligi asosida o'tkazilgan kechada poytaxtimiz va viloyatdan kelgan yosh ijodkor shoira va qo'shiqchilar o'z chiqishlari bilan yig'ilganlar ko'nglini xushnud etdi. Ayniqsa, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining yosh a'zosi, shoira Tillaniso



Nuryog'di hamda Andijon davlat tibbiyot institutining yoshlar bilan ishlash bo'yicha prorektori, shoir Mirzohid Botirov o'rtasidagi she'riy aytishuv olqishlarga sazovor bo'ldi. Institut rektori va ma'naviyat fidoyilar, faollari ijrosidagi “Dil” qo'shig'i qalblarga kirib borib, kechaga o'z gacha fusun bag'ishladi.

O'ktam ABDULLAYEV



MAKTABIMIZDA IJODIY MUHIT JONLANDI

Xabaringiz bor, davlatimiz rahbari “O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi farmoni imzolagan edi. Farmonga muvofiq 2021-yil 1-yanvardan boshlab har bir umumta'lim muassasasida ijodiy-madaniy masalalar bo'yicha targ'ibotchi lavozimi joriy etildi.

2021-yil 1-apreldan barcha maktablarda bu lavozim xodimlari ish boshladi. Jumladan, bizning Toshkent shahar Shayxontohur tumanidagi 262-maktabda ham ijodkor o'quvchilarimizni bir joyga to'plab, ularning o'z ustida ishlashi va o'zaro fikr almashishi uchun barcha sharoitlar yaratildi. Ayni kunda “Ijodiy-madaniy masalalar bo'yicha targ'ibotchi” lavozimida O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi tavsiya etgan yosh va iqtidorli ijodkor, shoir Kamoliddin Egamqulov faoliyat olib bormoqda.


Yosh ijodkor yoshlar bilan birgalikda ijodiy to'garak tashkil qilib, ularga kerakli bilim va maslahatlar berib bormoqda. Shu bilan birga, barcha o'quvchi-yoshlarning iste'dodini yuzaga chiqarish, ularni adabiyot va san'atga qiziqitirish, kitoxonlikka bo'lgan qiziqishini yanada kuchaytirish uchun turli tadbir va ijodiy kechalar tashkil etilmoqda.

Barno XO'JAYEVA,
Shayxontohur tumanidagi 262-maktab direktorining ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosari

O'tmishdan ma'lumki, millatimiz asliga avval "oq" imperiyaning, so'ng "qizil" imperiyaning ko'zi bilan boqdik. Tariximiz, madaniyatimiz, turmushimiz, hattoki o'qimoqchi bo'lgan kitobimiz ham oldin rus, keyin rus-sovet qoliplariga solindi. Asriy madaniyatimiz tufayliga o'zligimizni tamoman yo'qotishdan saqlanib qoldik.

Biz uchun kitob

tarixda ham, bugun ham aziz!



Tarixdan ma'lumki, Turkiston ahli yoshlarni chet ellarga ta'lim olishga yuborish bilan birga, o'lkadagi mavjud kutubxonalaridan o'zining beg'araz yordamini ayamagan: Musulmon kutubxonasiga zo'r yordam: [Xidraliyev tomonidan maorif ishlari uchun Inqilob qo'mitasiga qoldirilgan 1900 so'm pul va 250 gaz gazlamani Inqilob qo'mitasi raisi O'rozaliyev musulmon kutubxonasiga bergan] // Turkiston, 1923.04.11; M. Q. "Turon" kutubxonasini boyitish yo'lidagi [Turkiston davlat nashriyotida nashr etiladigan asarlardan kutubxonaga 2 nusxadan doimiy berib turishga qaror qilingan. Ozarbayjon Markaz Ijroqo'mi raisi Og'amali o'g'li ham Ozarbayjonda chiqadigan kitob, gazeta va jumallardan 2 nusxadan yuborib turishga va da qilgan] // Turkiston, 1924.10.13; 1923-yilda orenburglik olim Ahmad Is'hoqov o'zining arab, fors va turk tillaridagi 5 ming nusxadan iborat kitoblarini kutubxonaga sovg'a qildi. Kutubxonaga 10 yil ichida 20 mingdan ziyod tarixiy va zamonaviy mavzudagi kitoblar bilan o'z xazinasini boyitib, o'zbek ziyolilarining ma'rifiy markazlaridan biriga aylandi.

"Turon" kutubxonasini boyitish maqsadida o'ziga xos takliflar yozilgan maqolalarni ham ko'rishimiz mumkin: Qalqon. Kitoblar bo'sh yotmasin: [Yangi Toshkent markaz Turkiston kutubxonasidagi o'zbekcha kitoblarni "Turon" kutubxonasiga berish to'g'risida taklif] // Turkiston, 1824.-16-okt.

Kutubxonaga kitobxonlar qatnovi, bu maskanlarda o'tkazilgan tadbirlar xususida ham maqolalar uchraydi. Bundan ko'rinadiki, xalqimiz kutubxonaga va kitobni, mutolaani hamisha afzal bilgan.

Dilnoza AZIMOVA,
Toshkent shahar "Bilim"
AKM o'quv zalari sektor
muriri

Davr taqozosi bilan millat ma'rifatparvarlari XX asming birinchi va ikkinchi o'n yilligida O'zbekistonda asosiy e'tiborni milliy taraqqiyotni ta'minlashga qodir ma'rifatli insonlarni tarbiyalashga yo'naltirilgan xususiy, milliy gazeta hamda jurnallar tashkil etishga qarattidi. Matbuot orqali yangi faoliyat boshlagan kutubxonalar haqida ma'lumotlar muntazam e'lon qilib borildi.

XX asr boshida jadidchilik harakati rahnamolari mintaqa shaharlarida ma'rifatni keng targ'ib qilish maqsadida dastlabki ommaviy kutubxonalarga asos soldi. Ularning shaxsiy mablag'lari va xayriyalar hisobidan tashkil qilingan kutubxonalarda jamlangan adabiyotlar mazmuni va yo'nalishi jihatidan saroy kutubxonalardan ancha farq qilib, zamon ruhini aks ettirib turar, xalq ommasi, ayniqsa, yoshlarning dunyoqarashini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega edi.

Alisher Navoiy nomidagi Milliy kutubxonada Nodir nashrlar fondida saqlanayotgan "Ishtirokiy", "Qizil bayroq" hamda "Turkiston" gazetalarida e'lon qilingan maqolalar izohli bibliografiyasi tahlili asosida o'tmishdagi kutubxonaga va kitobxonlarimiz haqida maqolalar tahlili bilan tanishamiz.

O'sha davrlarda kutubxonalarini tashkil etishdan asosiy maqsad yoshlar, maktab o'qituvchilari, madrasa tala-

balari, ziyolilarni yangi adabiyotlar, darsliklar, matbuot bilan muntazam tanishtirib borish edi. Chunki bu adabiyotlar va gazetalarni boshqa biror joydan topish amrimahol edi. Yuqoridagi gazetalarda chop etilgan kutubxonaga va kitobxon haqida maqolalar tahlilidan ko'rish mumkinki, bu davrdagi kutubxonalar jamiyat diqqat markazida turgan. Qaysi hududda yangi kutubxonaga tashkil etilsa, albatta, bu matbuot orqali yoritilgan. (Masalan: Hamidiy Idris "A. Qursaviy kutubxonasi" Yangi Toshkentdagi umumiy tatar kutubxonasi "A. Qursaviy kutubxonaga" nomi bilan yangidan ochilgan. // Ishtirokiy. 1919.02.26; Juboy. Qiroatxonalimiz: [Toshkentdagi 1918-yilda "Turon" jamiyatining Orif Klibleyev nomiga ochilgan qiroatxonasi xususida] // Ishtirokiy. 1920.07.23; Xo'ja Badriy o'g'li. Bizda kutubxonaga // Ishtirokiy. 1920.10.09; Abulfayzi. Eski shaharda qiroatxonaga: [Eski Toshkentda Sharq kutubxonasini ochishga qaror qilingan] // Qizil bayroq, 1921.02.03; "Umid" kutubxonasi. Birinchi martdan boshlab Eski shahar Xadra mahallasida "Umid" kutubxonasi ochildi. Bunga ilgari "Turkiston" va "Maktab" kutubxonalarining barcha kitob va ashyolari bilan birga bir kub yangi kitob va asboblar o'rtilirdi: E'lon // Qizil

bayroq, 1922.05.07; Tarixiy va diniy kutubxonaga: [Sirdaryo muzofotining Mahkamai shar'iyasi masjidi jome'da diniy va tarixiy kitoblar saqlanadigan qiroatxonaga tashkil qilishga qaror qilgan] // Turkiston, 1923.09.12). "Irshod" kutubxonasi. "Irshod" kutubxonasi yangidan ochildi: Har xil kitoblar sotilur va olinur, "Qizil bayroq" va boshqa gazetalarda har vaqt topilur. Bildirish // Qizil bayroq, 1922.02.12.). Bu maqoladan ayonki, "Irshod" kutubxonasida nafaqat kitob o'qish, balki kitob xarid qilish yoki shaxsiy kitoblarni sotish uchun ham sharoit bo'lgan.

Diqqatga sazovor jihati, kutubxonalar haqida feletonlar ham gazetalarda nashr etilgan (Ahad. Tatar sotsialistlari kutubxonasida: Kichkina feleton // Ishtirokiy, 1918-yil, avg.).

Bu davrda ziyolilar kutubxonaning yutuq va kamchiliklari haqida ham maqolalar chop etganiga guvoh bo'lamiz: Ahmadjon Hakim hoji o'g'li, Maqsudiy Abduvali. Andijonda musulmon kutubxonasi haqida // Ishtirokiy, 1919.02.26; Maqsudiy Andijon kutubxonasining holi // Turkiston, 1922.09.15; O'quvchi. Eski shahar kutubxonasiga nazar solish kerak: [Davlat kutubxonasining Sharq sho'basi haqida] // Qizil bayroq, 1922.08.29; A-b. Eski shaharda kutubxonaga va qiroatxonaga: ["Turon" kutubxonasini tanqid] // Qizil bayroq, 1921.10.04.

Kutubxonaga xodimlarining kitobxonalar ustidan yozgan shikoyatomuz maqolalarini ham uchratish mumkin: Ya'qub Xo'ja. "Turon" kutubxonasi va o'quvchilar [Kutubxonadan olingan kitoblarni topshirish haqida kitobxonlarga murojaat] // Qizil bayroq, 1920.12.21; Qosimxo'ja o'g'li, Inoyatiy Nazir. Bildirish: ["Turon" kutubxonasidan kitob olib, topshirmagan kishilarga kitoblarni topshirish uchun 5 kun muhlat berilgan] // Ishtirokiy, 1920.07.01. O'z o'mida kitobxonlarning javob ko'rinishidagi murojaatlari gazetalarda bosilib chiqqan: Abdulvohid. Haqiqatdan xabarsiz yoqlovchiga: ["Turon" kutubxonasidan kitob olib qaytarmagan kishi haqidagi maqolaga raddiya yozgan "Kursant Tavfiq"ga javob] // Ishtirokiy, 1920.03.16.

Qiroatxonalar faoliyatini yanada takomillashtirishga oid takliflar ham nashr etilgan: M. V. Kutubxonachilik kurslari ochilishi kerak // Qizil bayroq, 1921.09.22.

Maqolalar tahlili shuni ko'rsatadiki, musulmonlar uchun qulaylik yaratish maqsadida ramazon oylarida kutubxonalarda ish vaqtlari kechki 22:00 gacha uzaytirilgan: Kechasi soat 10 gacha: ["Turon" kutubxonasining ertalabdan kechki soat 22 gacha ishlashi haqida bildirish] // Turkiston, 1923.12.15.

O'tgan yili Bahodir Jalolov yoshlar bilan o'tkazgan uchrashuvda men ham bor edim. Bir necha savollar berdim. Champion akaning samimiyligi, elsevarligi sezilib turardi. Shu-shu uning yutuqlariga qiziqib qoldim, havasim o'rtidi.

Kim aytdi qizlar boksga qiziqmaydigan deb?! Menga aytishlaricha, rahmatli katta momom boksga juda qiziqqan ekanlar. Hattoki, Muhammad Alining barcha chiqishlarini televizor orqali ko'rib borarkan. Shuning uchun bo'lsa kerak, menda ham boksga qiziqish katta. Qo'linga boks qo'lqopini olib, to'garakka ham bormoqchi bo'ldim. Afsuski, sog'lig'imga to'g'ri kelmas ekan...


Bahodir Jalolov yoshlar uchun namuna va o'rnak. Ba'zi yoshlarning hayotiy qahramoniga ham aylanib ulgurdi.

Vatanni butun dunyoga tanitish hammaning ham qo'lidan kelavermaydi. Vatandarparvar vohadoshimizni va butun O'zbekiston xalqini g'alaba bilan qutlayman. Bu yutuq mamlakatimiz mustaqilligining 30 yilligiga munosib to'yona bo'ldi!

Surxon — alp o'g'lonlar yurti. Biz, yoshlar siz bilan faxrlanamiz. Olg'a, akajon!

Yulduz ERGASHEVA,

Termiz shahridagi 10-maktabning 9-sinf o'quvchisi



Ana to'yona-yu, mana to'yona

Yaqinda bokschiimizning nufuzli xalqaro musobaqada g'olib bo'lishi butun o'zbek xalqini quvontirdi. Ular orasida vohadoshimiz Bahodir Jalolovning borligi meni juda to'liqlantirdi.



XALQ TABOBATI

Mavsum
tortig'iArtishok
(Supaga)

Bahorda olamning mitti zarrasidan ko'm-ko'k o't-o'lanlarigacha uyg'onadi. Qu-yosh zarin nurlarini zamin uzra taratib, yerdagi har bir o'simlikka jon baxsh etadi. Chuchmoma, yalpiz, otquloq, ismaloq – bari o't-o'lanlar tabiatga tarovat bag'ishlaydi. Shuningdek, bu o'simliklar insonlar salomatligi uchun ham koni foydadir.

Bahorgi sabzavot va mevalar, o'simliklar mazali bo'lishi bilan birga vitaminlar-ga boy, inson organizmi uchun juda foydali. Bu vitaminlar kishining miya faoli-yati va tanasidagi mineral moddalar almashinuvini yaxshilanishiga yordam beradi. Mavsumda immun tizimingizni mustahkamlash va o'zingizni baxtiyor his etishin-giz uchun oziqlanish ro'yxatingizga quyidagi o'simliklar, meva va sabzavotlarni kiritishingizni tavsiya qilamiz:



Qushqonmas

Qushqonmasning eng ko'p tarqalgan turi yashil ranglisidir. Oq qushqonmas esa quyosh nuri tushmagani sabab xlorofill moddasi yetishmay o'sadi. Bu o'simlikning binafsharang turi ham mavjud. Qushqonmasda antioksidant A va C vitaminlari, hujayralar almashinuvini uchun zarur bo'lgan B vitamini mavjud.

Suvda qaynatilgan qush-qonmasni stakanga solib ichish organizmni qonning ivishi uchun zarur bo'lgan K vitamini bilan ta'minlaydi. Homiladorlik davrida ushbu damlamani ichib turish tavsiya etiladi. Uning barglarini qaynatib iste'mol qilish ichak faoliyatini yaxshilaydi. Olimlarning aniqlashicha, bu giyoh saraton kasalligiga qarshi kurashishda yordam beradi.

Brokkoli

Antioksidantlarga boy bu sabzavotdagi S vitamini tanangizdagi kunlik ehtiyojni qondiradi. Shuningdek, undagi A vitamini ko'z, teri va immun tizimiga ijobiy ta'sir etadi. Brokkoli qand kasalligi, yurak xuruji va surunkali kasalliklarning oldini olishda yordam beradi. Sabzavotni muntazam ravishda iste'mol qilish saraton kasalligiga chalinish xavfini kamaytiradi. Brokkolidan sho'rva tayyorlab ichish immunitetni ko'taradi.



Qulupnay

Bahorda pishadigan mevalardan biri — qulupnaydan bir huc-vuch yeyish organizmdagi kunlik S vitaminining 149 foizini qoplaydi. Bu meva folat, marganes, kaliy va uglevodning koni sanaladi. Meva tarkibida kamida 25 ta antosiyanin mavjud bo'lib, u yurak faoliyatini yaxshilaydi. Qandli diabetning oldini oladi. Tanadagi serotonin gormonini oshiradi. Mavsumda bu mevaning to'yib-to'yib yeyish tavsiya etiladi.



No'xat

Oqsil manbayiga boy bu donli o'simlik tanadagi quvvatni oshiradi. Tarkibidagi A, C, K, B6 vitaminlari, folat, marganes, fosfor, magniy, temir moddalarini organizmni to'yintiradi. Oshqozon ishlashini yaxshilaydi. Ularda "saponin" deb ataladigan birikmalar mavjud bo'lib, saraton kasalligiga qarshi kurashadi. No'xatni qovurilgan kartoshka, makaron, osh va salatlar-ga qo'shib tayyorlash foydali bo'ladi.

Sabzi

Sabzi karotenoid pigmentlariga boy. Uning 90 foizini suv tashkil qiladi. Tarkibida oqsil, yog' va uglevodlar bor. Bir dona sabzi tarkibida kunlik A vitaminiga bo'lgan ehtiyojning 240 foizi mavjud. Sabzini iste'mol qilish prostata bezi, ko'krak, oshqozon va yo'g'on ichak saratoni kasalligi xavfini kamaytiradi. U soch, tirnoq va tishlarni mustahkam qiladi, terini esa tiniqlashtiradi.



Shunisi qiziqki, sabzi qaynatil-ganda undagi antioksidant-lar miqdori kamayish o'rniga ko'payib boradi. Shuningdek, maydalangan sabzini mayiz va qaynatilgan jo'xoriga aralashtirib yeyish salomatlikni mustahkamlaydi.

Mavsumning shifobaxsh o'simliklari ro'yxati shu bilan tugamaydi. Siz lavlagi, ismaloq, sholg'om, ko'k piyoz kabi sabzavotlarni iste'mol qilib immunitetingizni baquvvat qilishingiz mumkin. Zero, bahor faslidagi holsizlik, tushkunlik kabi holatlar sizni bezovta qilmaydi.

ESLATMA: Ba'zi kasalliklar uchun meva va sabzavotlarni me'yordan ortiq iste'mol qilish mumkin emas, shuning uchun oldindan shifokor bilan maslahatlashish zarur.

Azim AXTAMOV tayyorladi.

EKSPOZITSIYA



O'zbekiston davlat tabiat muzeyi Markaziy Osiyodagi dastlabki yirik ilmiy-ma'rifat muassasalardan bo'lib, bir yarim asrga yaqin tarixga ega. Unda geologiya, botanika, zoologiya va entomologiya kolleksiyalari mavjud.

"To'qayzor hayvonot dunyosi"

Joriy yilda muzey yanada boyidi. "To'qayzor hayvonot dunyosi" nomli yangi ekspozitsiya yaratildi. Ekspozitsiyadan dasht hayvonot olamidani noyob va "Qizil kitob"ga kiritilgan yo'lbars, to'qay mushugi, jingalak saqqoqush, jiyron qarqara, elik, suv va botqoq qush-

lari, qirg'ovul eksponatlari o'rin olgan. Yong'oqzor dioramasida esa yovvoyi to'ng'iz va bolasi, bo'rsiq, zarg'aldoq tulumlari bor. Bundan tashqari, cho'l va dasht hududlarida yashovchi yirtqich qushlar — burgut, oq boshli qumoy, yo'rg'a va to'xta tuvaloq tulumlari joylashtirildi.

Muzeyning ilmiy-ma'rifiy muassasa sifatida asosiy maqsadi har bir tomoshabinning, asosan, yosh avlodning ekologik bilimni mustahkamlash, O'zbekiston tabiatining tarixi va hozirgi kuni bilan yaqindan tanishtirish, respublikamizda tabiatni muhofaza

qilish sohasida qabul qilingan qonunlar to'g'risida ma'lumotlar berish. Natijada ular qishloq xo'jaligida erishilayotgan ilg'or yutuqlarni, tabiatda bo'layotgan hodisalarni o'rganadi, eng muhimi, tabiatga mehri kuchayadi, uni asrab-avaylashga odatlanadi.

M.SHUKUROVA,
U.URMANOVA,

O'zbekiston davlat tabiat muzeyi geologiya va geografiya bo'limi xodimlari

YOSHLAR VOZI

MUASSIS:
O'ZBEKISTON
YOSHLAR ITTIFOQI
MARKAZIY KENGASHI

BOSH MUHARRIR:


Hamza
ABDULLAYEV

Gazeta O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 2020-yil 11-dekabrda № 0242 raqami bilan qayta ro'yxatdan o'tgan.

MAS'UL KOTIB:
Yelena KALININA

NAVBAHCI MUHARRIR:
Jamshid MUSURMONOV

DIZAYNER:
Zafar RO'ZIYEV



TAHRIRIYAT MANZILI:

100083, Toshkent, Matbuotchilar ko'chasi, 32.

Telefonlar:

(71) 233-22-16.
(71) 236-79-95.

Gazeta materiallari tahririyat kompyuter markazida terildi va sahifalandi.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida, A-3 formatda chop etildi.
Hajmi – 3 bosma tabaq.
Kerxona mazilli: Buyuk Turon ko'chasi, 41.

Indekslar: 203, 3203
Bahosi kelishilgan narxda.
Buyurtma G-555
Adadi – 587

Bosilishga topshirilish vaqti – 21.00
Topshirildi – 20.02